



“TRISTAN VA IZOLDA”DA DENGIZ OBRAZI VA TAQDIR SEMANTIKASI

Nilufar To‘lqinova
SamDCHTI doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Joseph Bédier tomonidan qayta ishlangan “Tristan and Iseult” asarida dengiz obrazining badiiy-semantik vazifasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda dengiz obrazi yo‘l, sinov, tasodif, muhabbat, ayriliq, kechikish va o‘lim semantikasi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Asardagi empirik epizodlar - Tristanning norveg savdogarlari tomonidan olib ketilishi, yarador Tristanning dengizga topshirilishi, Tristan va Izoldaning kemada muhabbat ichimligini ichishi, oq va qora yelkan motivi - tahlil markaziga qo‘yiladi. Natijada dengiz obrazi asarda geografik fon emas, balki taqdirni harakatga keltiruvchi ramziy-poetik kuch sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Tristan, Izolda, dengiz obrazi, taqdir, oq yelkan, qora yelkan, muhabbat ichimligi, fojiviy sevgi, medieval romance.

Abstract. The article analyzes the artistic and semantic function of the sea image in Joseph Bédier’s retelling of *Tristan and Iseult*. The study examines the image of the sea in connection with the semantics of journey, trial, chance, love, separation, delay, and death. The empirical episodes of the work - Tristan’s abduction by Norwegian merchants, the wounded Tristan’s surrender to the sea, Tristan and Iseult’s drinking of the love potion on the ship, and the motif of the white and black sails - are placed at the center of the analysis. As a result, the article argues that the sea image in the work is not merely a geographical background, but a symbolic and poetic force that sets fate in motion.

Keywords: Tristan, Iseult, sea image, fate, white sail, black sail, love potion, tragic love, medieval romance.

Аннотация. В статье анализируется художественно-семантическая функция образа моря в произведении *Tristan and Iseult*, переработанном Жозефом Бедье. В исследовании образ моря рассматривается в связи с семантикой пути, испытания, случайности, любви, разлуки, задержки и смерти. В центре анализа находятся эмпирические эпизоды произведения: похищение Тристана норвежскими купцами, предание раненого Тристана морю, испытание Тристаном и Изольдой любовного напитка на корабле, а также мотив белого и чёрного паруса. В результате обосновывается, что образ моря в произведении выступает не просто географическим фоном, а символично-поэтической силой, приводящей судьбу в движение.

Ключевые слова: Тристан, Изольда, образ моря, судьба, белый парус, чёрный парус, любовный напиток, трагическая любовь, средневековый роман.

Kirish. “Tristan va Izolda” Yevropa o‘rta asr adabiyotida muhabbat va o‘lim motivlarini birlashtirgan eng mashhur syujetlardan biridir. Bédier qayta ishlagan matnning boshidayoq rivoyat “muhabbat va o‘lim” haqidagi hikoya sifatida taqdim etiladi: Tristan va Izolda sevadi, ammo shu sevgi ularni bir kunning o‘zida o‘limga olib boradi (Bédier, 1927, p. 13). Bu boshlang‘ich ta’rif asarning butun semantik maydonini belgilaydi.

Asarda dengiz obrazi alohida ahamiyatga ega. Tristan dengiz orqali begona makonga olib ketiladi, dengiz orqali Mark saroyiga yaqinlashadi, dengizda muhabbat ichimligi ichiladi, dengiz orqali Izolda kelishi kerak bo‘ladi va oxir-oqibat oq-qora yelkan belgisi Tristan taqdirini hal qiladi.



Demak, dengiz asarda shunchaki harakat joyi emas, balki qahramonlar taqdirini belgilovchi poetik kuchdir.

Maqolaning maqsadi “Tristan va Izolda”da dengiz obrazining badiiy vazifasini aniqlash va uning taqdir semantikasi bilan aloqasini ochishdir. Bunda dengiz obrazi to‘rt yo‘nalishda tahlil qilinadi: dengiz - sinov va jazolovchi kuch; dengiz - shifo va noma‘lum taqdir makoni; dengiz - muhabbat ichimligi orqali fojiviy sevgi maydoni; dengiz - oq va qora yelkanlar orqali yakuniy taqdir belgisi.

Metodlar. Tadqiqotda motiv tahlili, ramziy-semantik tahlil va syujet-kompozitsion yondashuvdan foydalanildi. Motiv tahlili yordamida dengiz bilan bog‘liq asosiy epizodlar ajratildi. Ramziy-semantik tahlil orqali dengizning muhabbat, o‘lim, kechikish va taqdir bilan aloqasi izohlandi. Syujet-kompozitsion yondashuv esa dengiz obrazining asardagi burilish nuqtalarini qanday tashkil etishini ko‘rsatishga xizmat qildi. Asosiy manba sifatida Joseph Bédierning Hilaire Belloc tarjimasidagi “Tristan and Iseult” asarining 1927-yilgi New York nashri olindi. Ushbu nashr Albert va Charles Boni tomonidan chop etilgan bo‘lib, 195 sahifalik kitob sifatida qayd etiladi (Bédier, 1927). Atoqli otlar va ularning umumiy madaniy ramzga aylanishi masalasida G.X. Obruyevaning atoqli ot komponentlari haqidagi tadqiqotlari yordamchi nazariy asos sifatida jalb qilindi (Obruyeva, 2010, pp. 100–102; Obruyeva, 2024, pp. 329–332).

Natijalar

1. Dengiz -yovuzlikka qarshi turuvchi taqdiriy kuch. Asarning dastlabki qismida Tristan norveg savdogarlari tomonidan kemaga aldab olib chiqiladi. Biroq matnda dengiz yovuz kemani ko‘tarmaydigan, talonchilikka yordam bermaydigan kuch sifatida tasvirlanadi. Dengiz bo‘ron ko‘taradi, kemani sakkiz kun-sakkiz tun adashtiradi va oxirida Tristan qirg‘oqqa chiqariladi (Bédier, 1927, pp. 16–17).

Bu epizodda dengiz ikki xil vazifani bajaradi. Bir tomondan, u Tristaning avvalgi hayotdan uzilishini ta‘minlaydi; ikkinchi tomondan, uni yangi taqdir sari olib boradi. Dengiz yovuzlikni jazolaydi, ammo begunoh qahramonni halok qilmaydi. Shu jihatdan dengiz asarda axloqiy sezgir tabiat kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu epizod Tristan taqdirining keyingi rivoji uchun muhim. Agar dengiz savdogarlarning kemasini adashtirmaganida, Tristan Mark saroyi bilan bog‘lanmagan, uning kelajakdagi sevgi va fojia yo‘li ham boshlanmagan bo‘lardi. Demak, dengiz syujetni tasodifan emas, balki taqdiriy zarurat sifatida harakatga keltiradi.

2. Dengiz - yarador qahramonning shifo va noma‘lumlik makoni. Morholt bilan jangdan keyin Tristan og‘ir yaralanadi. U o‘zini dengizga topshirishni istaydi, chunki dengiz “barcha imkoniyatlarni olib keluvchi” kuch sifatida talqin qilinadi. Tristan yelkansiz va eshkaksiz qayiqda dengizga chiqariladi; yoniga faqat arfasini olishni so‘raydi (Bédier, 1927, pp. 33–34). Matnda dengiz uni yetti kun va yetti tun olib yurgani, oxirida esa Izolda yashaydigan qirg‘oqqa eltib qo‘ygani tasvirlanadi (Bédier, 1927, pp. 34–35). Bu sahnada dengiz o‘lim va shifo o‘rtasidagi oraliq makon sifatida ishlaydi. Tristan aniq manzil tanlamaydi; u o‘zini dengiz ixtiyoriga topshiradi. Qahramonning irodasi susayadi, dengizning irodasi kuchayadi. Shu sababli dengiz bu yerda oddiy transport vositasi emas, balki taqdirni tashuvchi kuchdir.

Dengiz Tristaning shifo topishiga ham yo‘l ochadi. Chunki uni aynan Izolda qirg‘og‘iga olib keladi. Bu esa keyinchalik sevgi ichimligi voqeasiga zamin tayyorlaydi. Shunday qilib, dengiz qahramonni birinchi marta fojiali sevgi doirasiga yaqinlashtiradi.



3. Dengiz - muhabbat ichimligi va fojiviy bog‘lanish maydoni. “Tristan va Izolda” syujetidagi eng muhim sahnalardan biri muhabbat ichimligi epizodidir. Bu voqea aynan kemada, dengiz ustida sodir bo‘ladi. Izolda va Tristan chanqagan paytda xizmatkor qiz ichimlikni sharob deb o‘ylab ularga beradi. Ammo bu ichimlik oddiy sharob emas, balki ehtiros, quvonch, iztirob va o‘limni o‘zida jamlagan taqdiriy ichimlik sifatida talqin qilinadi (Bédier, 1927, pp. 56–57).

Izolda ichimlikdan ichadi va uni Tristanga beradi; Tristan ham ichadi. Brangien kirib kelib, idishni ko‘radi va uni “titroq dengiz”ga uloqtiradi. U Tristan va Izolda “o‘limni birga ichgani”ni anglaydi (Bédier, 1927, pp. 57–59). Keyinroq Brangien bu ichimlik orqali ular faqat muhabbatni emas, balki muhabbat va o‘limni birga ichganini aytadi (Bédier, 1927, pp. 61–62). Bu sahnada dengizning ramziy vazifasi juda kuchli. Qahramonlar quruqlikdagi ijtimoiy tartibdan - qirollik, nikoh, burch va siyosiy majburiyatlardan - vaqtincha ajralgan oraliq makonda turadi. Aynan shu oraliq makonda ularning taqdiri butunlay o‘zgaradi. Dengiz ustida ichilgan ichimlik ularning sevgisini ijtimoiy tanlov emas, balki taqdiriy hukmga aylantiradi.

Dengiz shu yerda chegaraviy makon bo‘ladi: ular Irlandiyadan ketgan, ammo Kornuolga hali yetmagan; avvalgi hayot tugagan, keyingi fojia hali boshlanmagan. Ichimlik esa ana shu oraliq holatda taqdirni muhrlaydi.

4. Dengiz - uzoqlik, kechikish va umid chegarasi. Asarning keyingi qismlarida dengiz qahramonlarni ajratib turuvchi masofa sifatida ishlaydi. Tristan va Izolda bir-biridan uzoqda yashaydi, xabarlar dengiz orqali keladi, uchrashuvlar dengiz masofasiga bog‘liq bo‘ladi. Tristan hatto Izoldaga bo‘lgan sog‘inchidan “dengizlar va orollar orqali” kezib yuradi (Bédier, 1927, p. 152). Bu tasvirlarda dengiz ichki iztirobning tashqi makonga ko‘chirilgan shakliga aylanadi. Dengiz sevgini sinaydi. U qahramonlarni birlashtirishi ham, ajratishi ham mumkin. Bir qarashda dengiz yo‘l ochadi, ammo ikkinchi tomondan aynan shu yo‘l kechikish, xavf va noaniqlik manbai bo‘lib qoladi. Shuning uchun asarda dengiz faqat harakat makoni emas, balki ruhiy masofa ramzi hamdir.

5. Oq va qora yelkan: dengizdagi belgining fojiali semantikasi. Asarning yakuniy qismida dengiz obrazining taqdiriy ma‘nosi eng yuqori darajaga chiqadi. Og‘ir yaralangan Tristan Kaherdinni Izoldaning oldiga yuboradi. U agar Izolda kelsa oq yelkan, kelmasa qora yelkan ko‘tarilishini buyuradi (Bédier, 1927, pp. 182–183). Bu yerda dengizdagi yelkan oddiy aloqa belgisi emas, balki hayot va o‘limni ajratuvchi ramziy kodga aylanadi.

Izolda Tristan tomon kelayotganida kema bo‘ron va sokinlik sabab kechikadi. Dengiz avval bo‘ron ko‘taradi, keyin shamol to‘xtaydi; kema sohilga yaqin bo‘lsa-da, yetib bora olmaydi (Bédier, 1927, pp. 187–188). Bu kechikish fojiani eng og‘ir nuqtasini tayyorlaydi: Izolda yaqin, lekin hali yetib kelmagan; Tristan tirik, lekin kutishga kuchi qolmagan. Nihoyat oq yelkan ko‘rinadi. Ammo Izolda Oq Qo‘llik rashk va alam bilan Tristanga yelkan qora ekanini aytadi. Tristan shu yolg‘on xabarni eshitib, hayotdan voz kechadi va Izoldaning nomini aytgan holda vafot etadi (Bédier, 1927, pp. 189–190). Bu sahna asardagi dengiz semantikasining eng kuchli ifodasidir: dengiz to‘g‘ri belgini olib keladi, ammo inson yolg‘oni bu belgining ma‘nosini buzadi.

Oq yelkan — hayot, najot va visol belgisi. Qora yelkan — o‘lim, umidsizlik va ayriliq belgisi. Fojia shundaki, real belgi oq, ammo qahramonga yetkazilgan xabar qora bo‘ladi. Demak, asarda taqdir faqat tashqi kuchlar orqali emas, balki insoniy rashk, yolg‘on va noto‘g‘ri talqin orqali ham yuzaga chiqadi.

6. Atoqli ot va semantik qarama-qarshilik: ikki Izolda obrazi. Asarda “Iseult the Fair” va “Iseult of the White Hands” nomlari ham alohida semantik qarama-qarshilik hosil qiladi.



Birinchi Izolda — shifo, muhabbat, sadoqat va najot timsoli. Ikkinchi Izolda esa rashk, yolgʻon xabar va fojiali kechikish bilan bogʻlanadi. Bu ikki nom shunchaki obrazlarni farqlamaydi; ular ikki xil taqdiriy kuchni ifodalaydi.

Atoqli otlarning umumlashgan semantik maʼnoga oʻtishi haqidagi nazariy yondashuv bu holatni izohlashda foydalidir. Obruyeva atoqli otning ayrim hollarda oddiy nomlash vazifasidan chiqib, madaniy va semantik yuk olishini koʻrsatadi (Obruyeva, 2010, pp. 100–102). “Tristan” va “Izolda” nomlari ham Yevropa madaniy xotirasida oddiy personaj nomi emas, balki fojiaiy sevgi ramziga aylangan.

Muhokama. “Tristan va Izolda”da dengiz obrazi bir necha qatlamda ishlaydi. Birinchi qatlam - geografik: dengiz qahramonlarni Irlandiya, Kornuol, Bretan va boshqa makonlar oʻrtasida harakatlantiradi. Ikkinchi qatlam - kompozitsion: asardagi muhim burilishlar aynan dengiz bilan bogʻliq sahnalarda yuz beradi. Uchinchi qatlam - ramziy: dengiz muhabbat, oʻlim, shifo, kechikish, umid va umidsizlikni birlashtiradi. Dengizning asosiy poetik vazifasi inson irodasi bilan taqdir oʻrtasidagi chegarani koʻrsatishdir. Tristan dengizga chiqadi, lekin manzilni oʻzi belgilamaydi. Izolda Tristan tomon suzadi, lekin boʻron va sokinlik uning yetib borishini kechiktiradi. Oq yelkan koʻtariladi, ammo bu belgi yolgʻon orqali qora deb talqin qilinadi. Dengiz asarda nafaqat tashqi makon, balki taqdirning koʻrinadigan shaklidir.

Dengiz obrazi muhabbatning ijtimoiy tartibga sigʻmasligini ham bildiradi. Tristan va Izolda ichimlikni quruqlikda emas, dengizda ichadi. Bu holat ularning muhabbati qirollik, nikoh, sadoqat va burch meʼyorlari bilan ziddiyatga kirishini oldindan belgilaydi. Dengiz ustida boshlangan muhabbat oxir-oqibat yana dengiz orqali kelgan oq yelkan va yolgʻon xabar bilan yakunlanadi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, “Tristan va Izolda”da dengiz obrazi oddiy manzara yoki yoʻl vazifasini bajarmaydi. U asarning fojiaiy poetikasini tashkil etuvchi markaziy ramziy obrazdir. Dengiz Tristan taqdirini yangi yoʻnalishga buradi, uni Izolda bilan bogʻlaydi, muhabbat ichimligiga makon boʻladi, keyinchalik esa oq va qora yelkanlar orqali hayot va oʻlim belgilarini yuzga chiqaradi.

Asarda dengiz qahramonlarni birlashtiradi, lekin ayni paytda ajratadi; najot beradi, ammo kechiktiradi; xabar olib keladi, lekin bu xabar insoniy yolgʻon tufayli buziladi. Dengiz “Tristan va Izolda”da taqdirning poetik modeli sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Кунтуғмиш. Равшан [Электрон ресурс]. – URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/ergash-jumanbulbul-o-g-li-aytuvchi-kuntugmish-ravshan>
2. Bédier J. *Tristan and Iseult* / translated by H. Belloc. — New York: A. & C. Boni, 1927. — 195 p. — URL: <https://archive.org/details/tristaniseult00bd>
3. Bédier J. *The Romance of Tristan and Iseult* / translated by H. Belloc [Electronic resource]. — Project Gutenberg, 2004. — URL: <https://www.gutenberg.org/ebooks/14244>
4. Bédier J. *The Romance of Tristram and Iseult* / translated by F. Simmonds; illustrated by M. Lalau. — London: William Heinemann; Philadelphia: J. B. Lippincott Company, 1910. — URL: <https://archive.org/details/romanceoftristra00bdie>
5. Bérout. *The Romance of Tristan; and The Tale of Tristan's Madness* / translated by A. S. Fedrick. — Harmondsworth: Penguin, 1970. — 171 p. — URL: <https://archive.org/details/romanceoftristan0000bero>



6. Thomas d'Angleterre. *The Romance of Tristram and Ysolt* / translated by R. S. Loomis. — New York: E. P. Dutton and Company, 1923. — 326 p. — URL: <https://archive.org/details/theromanceoftristramloomi>
7. Gottfried von Strassburg. *The Story of Tristan and Iseult* / rendered into English from the German by J. L. Weston. — London: David Nutt, 1902. — Vol. 1. — URL: <https://archive.org/details/TristanAndIseultWeston1902Vol1>
8. Loomis G. S. *Tristan and Isolt: A Study of the Sources of the Romance*. — Frankfurt am Main: J. Baer, 1913. — Vol. 1. — URL: <https://archive.org/details/tristanisoltstud01loom>
9. Spearing A. C. The Tristan story // *The Medieval Poet as Voyeur*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1993. — P. 51–74. — DOI: <https://doi.org/10.1017/CBO9780511518799.004>
10. Grimbert J. T. The Evolving Iconography of the Tristan Legend from the Middle Ages to the Present, with Special Emphasis on the Arthurian Revival in British Art // *Arthuriana*. — 2019. — Vol. 29, № 3. — P. 66–104. — URL: <https://www.clytiar.org/wp-content/themes/clytiar/news/2019-12-18-1%284%29.pdf>
11. Obruyeva G. Kh. The role of proverbs and idioms in the English language learning [Electronic resource]. — *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*. — 2025. — Vol. 4, Issue 4. — P. 152–159. — URL: [https://www.researchgate.net/publication/401427750 THE ROLE OF PROVERBS AND IDIOMS IN THE ENGLISH LANGUAGE LEARNING](https://www.researchgate.net/publication/401427750_THE_ROLE_OF_PROVERBS_AND_IDIOMS_IN_THE_ENGLISH_LANGUAGE_LEARNING)

